



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018-yil 1-noyabr holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1002 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **2,3 f.p. oshgan.**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1327 taga oshgan.**

2018-yilning yanvar-oktyabr oylarida Xorazm viloyatida 1994 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 543 taga ko'pdir.


Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 38,0 % ga kamaygan hamda ularning soni 667 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1002 ta (7,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14676 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (23,8 %), Urganch (10,4%), Xiva (9,5 %) tumanlarida va Xiva shahrida (8,9 %) kuzatilmoqda.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018-yilning 1-noyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Xorazm viloyati	15608	100	14676	100
Urganch sh.	3870	24,8	3496	23,8
Xiva sh.	1391	8,9	1336	9,1
tumanlar:				
Bog'ot	775	5,0	753	5,1
Gurlan	913	5,8	880	6,0
Qo'shko'pir	911	5,8	884	6,0
Urganch	1601	10,3	1508	10,3
Xazorasp	1093	7,0	1058	7,2
Xonqa	1166	7,5	1141	7,8
Xiva	1518	9,7	1409	9,6
Shovot	768	4,9	679	4,6
Yangiariq	1022	6,5	975	6,6
Yangibozor	580	3,7	557	3,8



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,0 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 6,0 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 1,8 % o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,7 % savdoda, 16,2 % sanoatda, 10,0 % qurilishda, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,8 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa va 28,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



2018 yil yanvar-oktyabr oylarida 1994 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 37,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (498 ta), Urganch (238 ta), Xiva shahrida (181 ta) va Xonqa tumanlarida (162 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (71 ta), Gurlan (94 ta) hamda Bog'ot (111 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdo (466 ta), sanoat (385 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (195 ta) va qurilish(195 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (27 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (45 ta) hamda tashish va saqlashda (65 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda





Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017-yil yanvar-oktyabr.	2018-yil yanvar-oktyabr.
Jami:	1451	1994
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	165	195
Sanoat	343	385
Qurilish	143	195
Savdo	308	466
Tashish va saqlash	67	65
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	122	191
Axborot va aloqa	26	27
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	49	45
Boshqa turlari	228	425

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2018-yil 1-noyabr holatiga 11732 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4058 ta, oilaviy korxonalar – 1185 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6200 ta va boshqalar 289 tani tashkil etadi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 69 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga yoki 35,3 % ga o'sgan. Shuningdek xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 54 tasi qo'shma korxonalar, 15 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar 20 ta (29,0 %), Shovot tumani 11 ta (15,9 %) va Xiva shahar 6 ta (8,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xonqa 1 ta (1,4 %), Yangibozor 1 ta (1,4 %), Gurlan 2 ta (2,9 %) va Xazorasp 3 ta (4,3 %) tumanlar hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018-yil 1-noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 43 ta (62,3 %), savdoda 11 ta (15,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda esa 3 ta (4,3%) va qurilishda 3 ta (4,3 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (1,4 %), tashish va saqlashda 2 ta (2,9 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek axborot va aloqa hamda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar mavjud emas.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018-yilning yanvar-oktyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 20 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga ko'paygan yoki 100,0 % o'sgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Turkiya Respublikasi – 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-2 ta va 9 ta boshqa mamlakatlar ishtirokida yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni (yanvar-oktyabr oylarida) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 9 ta, savdoda 3 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi 2 ta, qurilishda 1 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar 1 ta, tashish va saqlash 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018-yil 1-noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11659 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017-yil 1-noyabr holatiga qaraganda 2,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2830 tasi (24,3 %) Urganch shahriga, 1249 tasi (10,7 %) Urganch, 1215 tasi (10,4 %) Xiva tumanlariga hamda 1215 tasi (10,4 %) Xiva shahri hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11659 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3461 tasi (29,7 %) – savdoda, 2350 tasi (20,2 %) - sanoatda, 1462 tasi (12,5 %) - qurilishda, 1115 tasi (9,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 847 tasi (7,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 556 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 264 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 200 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1404 tasi (12,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018-yil yanvar-oktyabr oylarida 1713 kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 358 ta korxonaga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (451 ta), Urganch tumanida (212 ta), Xiva shahrida (153 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (54 ta), Yangiariq (87 ta) hamda Gurlan (88 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (465 ta), sanoatda (385 ta), qurilishda (195 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (194 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa - axborot va aloqa sohasida (27 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (44 ta), tashish va saqlashda (65 ta) hamda yashash va ovqatlanish (190 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018-yilning 1-noyabr holatiga 1252 tani tashkil etib, ulardan 1185 tasi yoki 94,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **48,1** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari ke-simida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,9 % yoki 331 tasi sanoat, 28,5 % yoki 338 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,4 % yoki 242 tasi savdo, 9,5 % yoki 112 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 19 tasi qurilish, 1,1 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 11 tasi axborot va aloqa, 0,7 % yoki 8 tasi tashish va saqlash hamda 9,4 % yoki 111 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
 Statistik registrarni yuritish bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: Sh.Babadjanov
 Tel.: 62 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
 registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
 tayyorlangan